

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.15.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

KAMALOVA IRODA IBROXIMOVNA

**“USTKI KIIYIMLAR UCHUN MO‘LJALLANGAN IKKI QATLAMLI
TRIKOTAJ TO‘QIMALARINI MAHALLIY XOMASHYOLARDAN ISHLAB
CHIQARISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH”**

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Namangan 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor philosophy (PhD)
on technical sciences**

Kamalova Iroda Ibroximovna

Ustki kiyimlar uchun mo‘ljallangan ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini mahalliy xomashyolardan ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish..... 5

Камалова Ирода Иброхимовна

Совершенствование технологии производства двухслойных трикотажных полотен из местного сырья для верхней одежды..... 29

Kamalova Iroda Ibrokhimovna

Improvement of the technology of production of two-layer knitted fabrics intended for outerwear from domestic fabrics..... 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 58

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.15.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

KAMALOVA IRODA IBROXIMOVNA

**“USTKI KIIYIMLAR UCHUN MO‘LJALLANGAN IKKI QATLAMLI
TRIKOTAJ TO‘QIMALARINI MAHALLIY XOMASHYOLARDAN ISHLAB
CHIQARISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH”**

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Namangan 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/T2199 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy Kengashning veb-sahifasida (www.namdtu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Baxtiyar Farruxovich Mirusmanov
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xanxadjaeva Nilufar Rahimovna
texnika fanlari doktori, professor

Abduraxmanov Abdurashid
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universitetida huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.15.03 raqamli Ilmiy Kengashning 2026 yil "16" 05 soat 13-30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160605, Namangan sh., Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, tel. (+99855) 251-43-04, 455-43-04, e-mail: info@nsi.uz, Namangan davlat texnika universitetida ma'muriy binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (166-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160103, Namangan sh., Yangi Namangan tumani, Islom Karimov ko'chasi 12-uy. Tel: (99869) 234-14-85

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «5» may kuni tarqatildi.

(2026 yil «14» yanvardagi № 86 -raqamli reyestr bayonnomasi).



Q.M. Xoliqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

X.T. Bobojonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

J.Q. Yuldashev

Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda trikotaj sanoatidagi ishlab chiqarish samardorligini oshirish, mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash uchun texnologik jarayonlarni boshqarish usullarini takomillashtirish, yangi assortimentdagi trikotaj matolarni ishlab chiqarish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Global trikotaj matolari bozori 2023 yilda 28 mlrd. \$ bo'lganini, 2033-yilgacha talab 5,1% ga o'sishi hamda 46 mlrd. \$ ga yetishi bashorat qilinmoqda¹. Bu borada, jumladan turli xildagi trikotaj kiyimlariga, texnik maqsadlarda trikotaj matodlardan hamda sun'iy intellektga asoslangan 3D trikotaj to'qimalaridan foydalanishga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Shu bilan birga, trikotaj xususiyatlarini bashorat qilishga, texnikaviy, estetik va zamonaviy badiiy-rangli bezatilgan hamda standart talablariga javob beradigan trikotaj matolari ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda yuqori samarali, innovatsion, energiyatejamkor texnik vosita va texnologiyalarni trikotaj ishlab chiqarish jarayonlariga tadbiiq qilishga, zamonaviy metodlarni qo'llash orqali sifatli hamda xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, trikotaj to'qimalarining yangi assortimentini ishlab chiqish, ularning texnologik parametrlarini, fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq etish va ularning asosiy o'zgarish qonuniyatlarini nazariy asoslash, matematik modellarini ishlab chiqish va bashorat qilish metodikasini yaratish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, yangi xomashyo turlaridan trikotaj to'qimalarini olish texnologik rejimlarini ishlab chiqishga, mavjud texnika va texnologiyalarni takomillashtirishga, trikotaj mashinalarining texnologik imkoniyatlarini kengaytirishga, texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarishga yo'naltirilgan ishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda trikotaj ishlab chiqarish korxonalarida o'rnatilgan trikotaj to'quv mashinalarining texnologik imkoniyatlarini takomillashtirish, sifat ko'rsatkichlari yuqori va xomashyo sarfi kam bo'lgan trikotaj to'qimalarini ishlab chiqarish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Ushbu maqsadlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha yillik va istiqbolga mo'ljallangan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi² da, "Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish" hamda "Sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish" bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, trikotaj korxonalarining eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishda ularning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan resurstejamkor hamda ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining yangi tuzulishli variantlarini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, trikotaj mashinalari ishchi holatini o'zgartirish hisobiga turli

¹ <https://www.factmr.com/report/2865/knitted-fabrics-market>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi" to'g'risida PF-158-son Farmoni

assortimentdagi ikki qatlamli trikotaj to'qimalari olishga qaratilgan ushbu ilmiy izlanishlar muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-maydagi PF-5989-son «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida» gi Farmoni, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2024 yil 1-maydagi PF-71-son «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 16 yanvardagi «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-6-son Farmoni, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish va takomillashtirish, yangi trikotaj to'qima tuzilishini tahlil qilish, trikotaj to'qimalarini fizik-mexanik va deformatsion xususiyatlarini tadqiq etish kabi masalalarni hal qilishda bir qator xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan, M.Midzuda, Syuy-Li-Son., Yu Lu., V.B Gupta, V.K.Kothari, D.N.Sandip, A.V.Shivaprakash, V.H. Maharaddi, A.D, Mikucioniene, T.H.Somashekar, B.V.Vasumathi, JameelaKh, A.S. Dalidovich, I.I.Shalov, L.I.Kudryavin, V.M.Lazarenko, I.G.Sitovich, A.A. Guseva, L.B.Karyakin, E.B.Pospelov va boshqalar.

Shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan trikotaj to'qimalarini olish texnologiyalarini takomillashtirish, trikotaj mahsulotlarining assortimentini kengaytirish, mahalliy xomashyolardan samarali foydalanish, trikotaj mashinalarini texnologik imkoniyatlarini kengaytirish hamda trikotaj to'qimalarining turli xususiyatlarini tadqiq etishga O'zbekistonning taniqli olimlarining ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: X.A.Alimova, Muqimov M.M, N.R.Xanxadjayeva, Q.M Xoliqov, B.F.Mirusmanov, L.I.Petrosova, T.G.Yakusheva, K.Z.Yunusov, F.A. Abduraximova, M.I.Umarova, X.A.Xazratkulov, G.X.Gulyayeva, M.M., Musayeva, N.M Musayev, M.M Mirsodiqov va boshqalar. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida trikotaj to'qimalarining tuzilishi, shakl barqarorligi va fizik-mexanik xossalari o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur o'rganish, shuningdek, mahalliy xom ashyolardan foydalangan holda yuqori sifatli va raqobatbardosh trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishning ilmiy va texnologik asoslarini yaratish bo'yicha salmoqli natijalarga erishilgan.

Shu bilan birga, texnologik imkoniyatlar va iqtisodiy samaradorlikni muvofiqlashtirish, shakl saqlash xususiyatini oshirish, shuningdek, yangi trikotaj to'qima tuzilishlari va ularni ishlab chiqarishning kompleks ilmiy-texnologik asoslarini ishlab chiqish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lishiga

qaramasdan, ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini ishlab chiqarishda xomashyo sarfi kam, tarkibidagi xomashyo (ip) ning chiziqliy zichliklarini va ularning to'qima tarkibida joylashuvini turli tartibda o'zgartirish orqali yangi assortimentdagi trikotaj matolar ishlab chiqarish hamda ushbu o'zgartirishlarni ikki qatlamli trikotajning texnologik va fizik-mexanik xususiyatlariga ta'sirini ilmiy asoslarini ishlab chiqish kabi muammolar yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari hamda "Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini mahalliy xomashyolardan ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi xo'jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini mahalliy xomashyolardan ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining yangi tuzilishli variantlarini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va to'qish usulini asoslash;

ikki qatlamli trikotaj to'qimalar tarkibidagi iplarning chiziqliy zichligi o'zgarishining trikotaj matosini fizik-mexanik xususiyatlariga ta'sir etuvchi omillarini ilmiy asoslash;

ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olishda ipni ignalarga qo'yish burchagini trikotaj tarkibidagi halqalar o'lchamiga ta'sirini tahlil qilish va nazariy asoslash;

ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining yangi tuzilishli variantlarini trikotajning sifat ko'rsatkichlariga bog'liqlik omillarini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Xitoyning "WONDERFUL" firmasida ishlab chiqarilgan "HP-380" rusumli yassi ikki ignadonli trikotaj to'quv mashinasi olingan.

Tadqiqotning predmetini mahalliy xomashyolar paxta va poiakrilonitril (PAN) iplaridan foydalanib ikki qatlamli trikotaj to'qima namunalarini ishlab chiqarish jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari: Tadqiqot jarayonida trikotaj texnologiyasi, to'qimachilik materialshunosligi, nazariy mexanika va amaliy matematika usullari hamda kompyuter dasturiy ta'minotidan foydalanilgan. Tajriba-sinov ishlarida TTYESI qoshidagi sinov laboratoriyasi va "TANG GROUP" MCHJ korxonasidagi mavjud sinov uskunalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining yangi tuzulishli variantlarini ishlab chiqarish texnologiyasi ignalarni tanlab ishlatish va egish chuqurligini boshqarish asosida takomillashtirilgan;

olingan yangi tuzulishli variantlarda xomashyoning chiziqliy zichligi va rapportdagi joylashuvining o'zgarishi sifat ko'rsatkichlariga bog'liqligi asoslangan;

ignalarga ip qo'yish burchagini trikotaj tarkibidagi halqalar o'lchamiga ta'sir etish omillari matematik model asosida tahlil qilingan va regression tenglamalar olingan;

trikotaj to'qimasi tarkibidagi iplarning chiziqliy zichliklari o'zgartirish natijasida texnologik ko'rsatkichlar va fizik-mexanik xususiyatlariga ta'sir etuvchi omillar kompleks baholangan va tahlil qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini variantlari tarkibidagi iplarini miqdori va iplarning chiziqliy zichliklarini son ko'rsatkichlari aniqlangan;

ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini igna ilgagi ta'sirida ipning taranglik kuchini uzatishning turli xil tezliklarda to'qilishni zichligini optimal qiymatlari aniqlangan;

ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini fizik-mexanik xususiyatlarini o'rgangan holda to'qimalarni pishqlik ko'rsatkichlaridan biri ularning ishqalanishga chidamliligi aniqlangan;

ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini mashinani texnologik imkoniyatlaridan foydalanib, iplarni chiziqliy zichliklarini va to'qimada iplar joylarini almashinish natijasida to'qilishdagi pishqligi oshirilgan;

trikotaj to'qimalarining 6 ta variantlarini tahlili asosida, to'qimalarni sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada shakllantirilgan ilmiy holatlar, prinsiplar, xulosalar, tavsiyalar va amaliy tadqiqot natijalarining bir-biriga mos kelishi, aprobatiya va joriy qilinishidagi ijobiy natijalar, shuningdek natijalarni solishtirish, baholash kriteriyalariga ko'ra, ularning adekvatligiga, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va ularning ko'rib chiqilayotgan sohasidagi ma'lumotlariga qiyosiy tahlili bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xomashyo sarfi kam bo'lgan, yuqori sifatli yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining tarkibidagi kalava iplarining chiziqliy zichliklarini trikotajning texnologik ko'rsatkichlariga va fizik-mexanik xususiyatlariga bog'liqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati xomashyo sarfi kam bo'lgan, yuqori sifatli ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini yangi tuzilishi yaratilishida va olishda, mashinaning texnologik imkoniyatlarini kengayishida, to'qima va mahsulot turlarini ko'payishida hamda paxta va PAN iplarini qo'llanish ko'lamini kengayishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Trikotaj mashinalarida yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan natijalar asosida:

mahalliy korxonalarda ichki bozor hamda eksportga yo'naltiriladigan ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish texnologiyasi TANG GROUP" MCHJ korxonasida ishlab chiqarishga joriy qilingan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 7-iyuldagi №03/25-1668 sonli ma'lumotnomasi). Natijada moddiy resurslarni tejash va ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish asosida ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga nisbatan mehnat unumdorligini 2-3 % oshishiga erishilgan hamda xomashyo sarfini kamaytirish hisobiga korxonada 1 tonna mato olishdan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 21 mln 536 ming (yigirma bir million besh yuz o'ttiz olti ming) so'mni tashkil qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatiyasi. Tadqiqot ishining natijalari 6 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashlarda 9 ta maqola, ulardan 3 tasi respublika va 6 tasi chet el jurnallarida nashr etilgan hamda Intelektual mulk agentligidan EHM dasturi uchun 2 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyektlari va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Trikotaj matolarini ishlab chiqarishning bugungi kun holati”** deb nomlangan birinchi bobida trikotaj mahsulotlari assortimentini kengaytirish va sifatini oshirish, trikotajni ishlab chiqarishda turli xil xomashyolardan samarali foydalanish, yangi tuzilishli trikotaj to'qima va maxsulotlarini ishlab chiqarish, ularni nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar tahlil qilingan.

Belgilangan vazifalarni hal qilishda turli xom ashyolardan foydalanib, to'qimachilik maxsulotlarini ishlab chiqarish yo'nalishlari, shuningdek asosiy xomashyo: paxta, poliakrilnitril (PAN), jun, yarim jun, lavsan, spandeks va laykra iplarini qayta ishlash va sifatini oshirish masalalari o'rganildi. Kalava ipining chiziqliy zichligi o'zgarishi, halqa ipi uzunligi bir xil bo'lganda, uning texnologik va ekspluatasion xususiyati, halqa parametrlari, mato o'lchami va uning yuza zichligini o'zgarishiga olib kelishi bo'yicha ikki qatlamli trikotaj ishlab chiqarishda xom ashyo sarfini kamaytirish uchun, trikotaj tuzilishiga glad halqa qatorini kiritishni taklif etilgan.

Tahlil qilingan adabiyotlar sharxi, bajarilgan ilmiy ishlar, patentlar va internet tarmoqlaridan olingan ma'lumotlarning tahlillarini umumlashtirib va yakunlab, shunday xulosaga kelish mumkin, ya'ni trikotaj to'quv mashinalarida trikotaj to'qimalarini olishda iplarning chiziqliy zichliklarini son ko'rsatkichlari va to'qimalar tarkibida ularni joylari almashtirilganda, to'qimani texnologik ko'rsatkichlariga xamda fizik-mexanik xususiyatlariga iplarni ta'sirini tadqiqot-lashga bag'ishlangan to'liq, oxirigacha bajarilgan tadqiqot ishlari bajarilmaganligi ma'lum bo'ldi. Olib borilgan tahlillar natijasida dissertatsiya ishini maqsad va vazifalari aniqlab olindi.


Dissertatsiyaning **“ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini mahalliy xomashyolardan ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olishda foydalanilgan iplarning fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiqotlari o'tkazilgan.

Xitoyning “WONDERFUL” firmasida ishlab chiqarilgan “HP-380”rusumidagi yassi ikki ignadonli zamonaviy trikotaj to‘quv mashinasining texnologik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanib, to‘qima tarkibidagi iplarini miqdorini trikotaj to‘qimasini texnologik parametrlariga va fizik-mexanik xususiyatlariga ta’sirini tadqiqotlash hamda ikki qatlamli trikotaj to‘qima turlarini kengaytirish maqsadida, ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining 6 ta variantini tuzilishi va olish usullari ishlab chiqildi. Olingan ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining I-variantini tuzilishi va grafikli yozuvi 1-rasmda keltirilgan bo‘lib, uning hamma halqa qatori chiziqliy zichligi 20 teks x 3 paxta ipidan to‘qilgan. (1-rasmga qarang).




1-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining (a) tuzilishi va (b) grafikli yozuvi

Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasini tarkibidagi xomashyolarni almashtirilishi, ya’ni ikki qatlamli trikotaj to‘qimasini texnologik ko‘rsatkichlariga va fizik-mexanik xususiyatlariga ta’sirini tadqiq va tahlil qilish maqsadida bu to‘qimaning II-varianti chiziqliy zichligi 20 teks x 3 ga teng bo‘lgan 100 % PAN kalava ipidan foydalanib to‘qib olingan. Bu ikki qatlamli trikotaj to‘qimasini tuzilishi I-variant tuzilishi bilan bir xil bo‘lganligi sababli to‘qimani faqat grafikli yozuvlari va iplar bilan taxtlanishlari 2-rasmda keltirilgan (2-rasmga qarang).




2-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining grafikli yozuvi.

Ikki qatlamli trikotaj to'qimasini tarkibidagi iplarni chiziqliy zichliklari va joylari almashtirilganda trikotajni texnologik va fizik-mexanik xususiyatlariga tasirini tadqiqot qilish maqsadida ikki qatlamli trikotaj to'qimasini III-variantini grafikli yozuvi 3-rasmga keltirilgan (3-rasmga qarang).



3-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to'qimasining grafikli yozuvi.


Mashina karetkasini chapdan o'ngga harakatlanishida to'qimani III-halqa qatori ort ignadonning toq ignalarida chiziqliy zichligi 20 teks x 3 PAN ipidan hosilali glad halqa qatori to'qilsa, mashina karetkasini o'ngdan chapga harakatlanishida hosilali glad to'qimasini IV-halqa qatori ort ignadonning juft ignalarida hosilali glad halqa qatorlari to'qiladi. To'qimaning rapportini eng oxirigi halqa qatorida hosilali glad halqa qatorlarini birlashtirgan lastik halqa qatorlarini protyajkalari ustiga chiziqliy zichligi 20 teks x 3 PAN arqoq ipi, mashina karetkasini o'ngdan chapga harakatlanishi natijasida qo'yilgan (4-rasmga qarang).



4-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to'qimasining grafikli yozuvi


Natijada, zamonaviy trikotaj to'quv mashinasining texnologik imkoniyatlaridan to'liq foydalanib, mashinaning konstruktiv tuzilishiga hech qanday o'zgartirishlar kiritmasdan ikki qatlamli trikotaj to'qimasini III-varianti to'qib olingan. Ikki qatlamli trikotaj to'qimasini eniga bo'lagan cho'zilishini kmaytirish maqsadida bu trikotajning IV-variantining tuzilishi yaratilib, qolgan variantlardan farqi to'qima halqa qatorlarini hosil qilishda arqoq ipining chiziqliy zichligi 20 teks x 4 PAN ipidan hosil qilingan. Ikki qatlamli trikotaj to'qimasini grafikli yozuvi 4-rasmga keltirilgan bo'lib, ikki qatlamli trikotajning birinchi, ikkinchi va uchinchi halqa qatorlari oldin olingan I, II- va III-variantlarniki bilan taxtlanishlari bir hil bo'lib, faqatgina PAN ipidan hosil qilingan arqoq ipini chiziqliy zichligi 20 teks x 4 ga teng va halqa qatorlarini to'qish ketma-ketliklari oldingi variantlar kabi to'qilishi bir xil.

Ikki qatlamli trikotaj to'qimasining V-variantini grafikli yozuvi 5-rasmga keltirilgan. Bu variantni IV-variantdan farqi halqa qatorlarini turli chiziqliy zichliklarga ega bo'lagan iplardan olinish bilan farqlanishini ko'rish mumkin (5-rasmga qarang).



5-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to'qimasining grafikli yozuvi.

Ikki qatlamli trikotaj to'qimasini eniga bo'lagan cho'zilishini yanada kamaytirish maqsadida bu trikotajning VI-variantining grafikli yozuvi 6-rasmga keltirilgan bo'lib, to'qimani beshinchi halqa qatori chiziqiy zichligi 20 teks x 4 PAN ipidan hosil qilinganligini ko'rish mumkin (6-rasmga qarang).




6-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to'qimasining grafikli yozuvi.

Mashinada lastik 1+1 to'qimasini halqalariga oldi va orqa ignadonda hosil qilingan hosilali glad halqalari tashlanishi hisobiga har ikkala alohida to'qilgan qatlam birlashtirildi. Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini bunday usul bilan to'qish, ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olishning takomillashgan usullaridan biri bo'lib hisoblanadi va bu usul mashinaning unumdorligiga ta'sir etmaydi. Olingan ikki qatlamli trikotaj to'qimalaridan bolalar, ayollar va erkaklar engil ustki trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanish mumkin.


Ipni ignalarga qo'yish burchagini trikotajning sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini nazariy tadqotlarini olib borishda quyidagi natijalarga ega bo'ldik. Ip ignaga uzluksiz va vaqti-vaqti bilan qo'yilishi mumkin. Ipni ignaga qo'yishning ikki usulida ham ip yurgizgich qo'zg'aluvchan yoki qo'zg'almas bo'lishi mumkin. Yassi ignadonli ko'ndalangiga to'qiydigan mashinalarida ip ignaga vaqti-vaqti bilan qo'yiladi.

Halqa hosil qilish jarayonida berilayotgan ip tarangligiga katta ahamiyat berish zarur, chunki ipning tarangligi halqa ipining uzunligiga bog'liqdir. Agar berilayotgan ipning tarangligi kam bo'lsa, halqa hosil qilish jarayonida iplar chalkashib ketishi yoki ignadan sirg'anib tushib ketishi mumkin, taranglikning katta bo'lishi esa ipning uzilib ketishiga sabab bo'ladi. Ipning ignaga to'g'ri yoki noto'g'ri qo'yilishi ipni ignaga qo'yish o'lchamlariga bog'liqdir. Ignaga berila yotgan ipning vertikal tekislikdagi proyeksiyasi bilan eski halqalar chizig'i 2-2 orasidagi burchak β -ipni halqalar chizig'iga nisbatan qo'yish burchagi deyiladi (7-rasmga qarang).



7-rasm. Yassi ikki ignadonli trikotaj to‘quv mashinasida ipni qo‘yish sxemasi: α -ipni ignalarga nisbatan qo‘yish burchagi; β -ipni halqalar chizig‘iga nisbatan qo‘yish burchagi; m -ip yurgizgichning ilgarilash miqdori; h -ip yurgizgichning bo‘ylamasiga balandligi; B -ignalar tekisligi bilan ip yurgizgich orasidagi masofa.

Ip qo‘yish jarayonida ipni tarangligini, iplarning har hil taxtlanishida, iplarni chiziqiy zichligiga bog‘lab, halqa ipi uzunligiga ta‘sirini tahlili keltirilgan. Ignaga berilayotgan ipning gorizontal tekislikdagi proyeksiyasi bilan ignalar tekisligi orasidagi burchak α -ipni ignalarga nisbatan qo‘yish burchagi deyiladi (8-rasmga qarang). Ignalar qadami bo‘ylab ip yurgizgichdan to ipni egishni boshlagan ignagacha bo‘lgan m masofaga ip yurgizgichning ilgarilashi deyiladi.



8-rasm. Ipni qo‘yish sxemasi. Bu erda: m -igna massasi, kg; a - igna tezlanishi, m/s^2 ; P - ipning taranglik kuchi, N; $m|s$;


Ipni halqalar va ignalar chizig‘iga nisbatan ip qo‘yish burchaklari ip yurgizgichning ilgarilash miqdori m , ip yurgizgichning bo‘ylamasiga balandligi h va ignalar tekisligi bilan ip yurgizgich orasidagi masofa B lar orqali sozlanadi. Uzatilayotgan ipni ilib olishdagi harakatini quyidagi differensial tenglama orqali ifodalaymiz.

Ip deformatsiyasining o‘zlaridagi proyeksiyasini mos ravishda S_y va S_x ko‘rinishida yozish mumkun. Shularni xisobga olgan holda (2) ni qaytta yozamiz.

$$\left. \begin{aligned} m \frac{dv_y}{dt} &= -\varepsilon S \sin \beta - \frac{dv_y}{dt} \cdot m \cdot \cos(\alpha - \beta) \\ m \frac{dv_x}{dt} &= -\varepsilon S \cos \beta - \frac{dv_x}{dt} \cdot m \cdot \sin(\alpha - \beta) \end{aligned} \right\} \quad (1)$$

(1) tenglamadan ipni halqalar chizig‘iga nisbatan qo‘yish burchagini rasional qiymatini tanlash, va halqa hosil qilish jarayoniga ta‘sirini balandligiga bog‘liqlik ifodasi grafigini *Maple* dasturi orqali tahlil qilingan. Tahlil natijalaridan ma‘lumki, ip ilgakning qiyalik burchagining o‘zgarishi bo‘yicha ip yurgizgich uzatayotgan balandliklarini ip ilgak tezliklariga bog‘liqlik trayektoriyalari keltirilgan ipning ip

yurgizgichning tezligi oshishi iplarning taranglik kuchini oshishiga olib keladi bu esa iplarning uzilishlar sonini oshiradi.




9-rasm. Igna ilgagining joylashish sxemasi.

$$\vartheta = \sqrt{\frac{2 \cdot a \cdot H}{\sin(\arctg(\frac{h_2}{x+l}))}} \cdot \frac{\cos(\arctg(\frac{h_2}{x+l}))}{\cos \alpha} \quad (2)$$

Taranglik kuchlarini to'g'ri baholashda ip uzatkich tezligini tanlash orqali ipni tarangligini, iplarning har hil taxtlanishini iplarni chiziqliy zichligiga bog'lab baholash keltirilgan.

$$\vartheta = \sqrt{\frac{T}{\mu}} \quad (3)$$




10-rasm. Igna ilgagi ta'sirida ipning taranglik kuchini ilgak og'ish. Ipni uzatish burchagining turli xil, 1- $\alpha = 30^\circ$; 2- $\alpha = 45^\circ$; 3- $\alpha = 60^\circ$; qiymatlarida vaqtga bog'liq grafigi.

(3) tenglikda μ -ipning taranglik kuchi, T-ipning chiziqliy zichligi, ip uzatkich va igna ilgagi jarayonida ignalar tezligining ipning taranglik kuchiga va ipning chiziqliy zichligiga bog'liqligini ifodalaygan tenglamadan ipning taranglik kuchini aniqlashda

$$T = \mu \cdot \vartheta^2 = \mu \cdot \frac{2 \cdot a \cdot H}{\sin(\arctg(\frac{h_1}{x+l}))} \cdot \left[\frac{\cos(\arctg(\frac{h_1}{x+l}))}{\cos \alpha} \right]^2 \quad (4)$$

(4) ifoda ipning taranglik kuchini chiziqliy zichligiga ilish balandligiga, β -ipni halqalar chizig'iga nisbatan qo'yish burchagiga, igna ilgagi og'ish burchagiga bog'liqlik ifodasini *Maple* dasturi orqali grafiklarda tahlillari keltirilgan.


10-11-rasmlardagi grafiklardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, igna ilgagi ta'sirida hosil bo'ladigan taranglik kuchini bir meyarda saqlashda ip ilgakning og'ish burchagi $\alpha_2 = 45^\circ$ qiymatida va ip yurgizgichning tezligini $\vartheta_2 = 1,2 \text{ m/s}$ ipning taranglik kuchlari bir tekisda oshishi halqa hosil qilishda iplarni bir tekisda uzatilishini ta'minlash mumkin (10-rasmga qarang).



11-rasm. Igna ilgagi ta'sirida ipning taranglik kuchini uzatish tezliklarining turli xil; 1- $\vartheta_1 = 1,0 \text{ m/s}$; 2- $\vartheta_2 = 1,2 \text{ m/s}$; 3- $\vartheta_2 = 1,4 \text{ m/s}$; qiymatlarida vaqtga bog'liq grafifi.


Igna ilgagi ta'sirida iplarda hosil bo'ladigan taranglik kuchi xisobiga iplarning bir tekisda cho'zilishini tahlil qilish orqali sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini ko'rib chiqamiz. Ipning nisbiy cho'zilishini taranglik kuchiga bog'liqlik ifodasini aniqlaymiz. Nisbiy cho'zilishdagi ipning chiziqliy zichligi ipni uzatishdagi tezligini igna ilgagi balandligiga va ipning kesim yuzasiga bog'liqlik ifodasi aniqlangan (12-rasmga qarang).

$$\varepsilon = \frac{T}{E \cdot S} = \frac{1}{E \cdot S} \cdot \frac{2 \cdot a \cdot H \cdot \mu}{\sin(\arctg(\frac{h}{x+l}))} \cdot \left[\frac{\cos(\arctg(\frac{h}{x+l}))}{\cos \alpha} \right]^2 \quad (5)$$



12-rasm. Igna ilgagi ta'sirida ipning nisbiy uzayishini tezliklarining turli xil $\vartheta_1 = 1.0 \text{ m/s}$; $\vartheta_2 = 1.2 \text{ m/s}$; $\vartheta_3 = 1.4 \text{ m/s}$ qiymatlarida vaqtga bog'liq grafifi

Xulosa qilib aytganda, ip ilgak ta'sirida ipning cho'zilishini taranglik kuchini og'ish burchagini $\alpha_2 = 45^\circ$ qiymatida ilib olishda uzatish tezligi $\vartheta_2 = 1.2 \text{ m/s}$ bo'lganda ipning uzayishi $\varepsilon = 0.6 \div 0.8$ gacha bo'lishi iplarni bir tekisda halqa hosil qilishni ta'minlaydi, bu esa ipning sifat ko'rsatkichlarini oshishiga xizmat qiladi.



13-rasm. Igna ilgagi ta'sirida ipning taranglik kuchini ipning chiziqliy zichliklarini turli xil, 1 – $T_1 = (20 \text{ teks}) \times 2$, 2 – $T_2 = (20 \text{ teks}) \times 3$, 3 – $T_3 = (20 \text{ teks}) \times 4$ qiymatlarida nisbiy uzayishiga bog'liq grafigi: 1- $\vartheta_1 = 1.0 \text{ m/s}$; 2- $\vartheta_2 = 1.2 \text{ m/s}$; 3- $\vartheta_3 = 1.4 \text{ m/s}$

Bu burchakni ilgakga nisbatan ipning og'ish burchagi deb qaralsa ham bo'ladi. 20 teks x3 mashinada ishlatilganda mashina qiynalmasdan to'qiydi. 20 teks x 2 ingichkalik qiladi, to'qima buralib ketishi mumkin. 20 teks x 4 qalinroq bo'ladi to'qimani zichligi yuqori bo'ladi. Halqalarni bir tekis hosil qilishda uzatish tezligining 1- $\vartheta_1 = 1.0 \text{ m/s}$; 2- $\vartheta_2 = 1.2 \text{ m/s}$; 3- $\vartheta_3 = 1.4 \text{ m/s}$ qiymatlarida ipning chiziqliy zichliklarini 1 – $T_1 = (20 \text{ teks}) \times 2$, 2 – $T_2 = (20 \text{ teks}) \times 3$, 3 – $T_3 = (20 \text{ teks}) \times 4$ mos qiymatlarida iplarning bir tekisda uzayishini ta'minlab berishini turli xil teksdagi iplarni cho'zish tezliklari ta'siridagi taranglik kuchlarini mos ravishda o'zgarishini grafikda ko'rishimiz mumkin (13-rasmga qarang). Bunda turli xil teksdagi iplar uchun iplarni uzatish tezliklarini to'g'ri tanlash halqalarni bir tekisda ta'minlashga erishiladi bu esa o'z navbatida iplarning uzilishlar sonini kamayishiga olib keladi. Ipning cho'zilishini taranglik kuchini og'ish burchagini $\alpha_2 = 45^\circ$ qiymatida ilib olishda uzatish tezligi 1- $\vartheta_1 = 1.0 \text{ m/s}$ qiymatida ipning chiziqliy zichligini 1 – $T_1 = (20 \text{ teks}) \times 2$ tanlash, uzatish tezligi 2- $\vartheta_2 = 1.2 \text{ m/s}$; esa ipning chiziqliy zichligini 2 – $T_2 = (20 \text{ teks}) \times 3$ tanlash va uzatish tezligi 3- $\vartheta_3 = 1.4 \text{ m/s}$ chiziqliy zichligini 3 – $T_3 = (20 \text{ teks}) \times 4$ muhim ahamiyat kasb etadi. Ilgakli ignalar joylashuvidan shuni ta'riflash mumkinki, $T_1 = (20 \text{ teks}) \times 2$, $T_2 = (20 \text{ teks}) \times 3$, hamda $T_3 = (20 \text{ teks}) \times 4$ iplarni ham ilib olishdagi taranglik kuchlari bir teksda o'zgarishi 20-teksli iplar ham tahlil qilingan.

Takomillashtirilgan ta'minlash parametrlarini optimallashtirish masalasini yechish uchun to'la omilli tajriba TOT– 3x3, 8 ta variantda tajriba o'tkazildi, ya'ni barcha omillar o'rtasidagi xamma qaytarilmaydigan kombinatsiyalar miqdorlarini nazarga olinadi, chunki to'qimachilik tadqiqotlarda bu usul optimal variantni izlashda eng

samarali usul xisoblanadi. Omillarning o'zgarish darajasi 1-jadvalda, tajriba rejasi esa 2-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Omllarning o'zgarish sathlari

Omllar		O'lchov birligi	O'zgarish sathlari			O'zgarish intervali
Nomi	Kodlari		-1	0	+1	
Halqa qadami	X_1	mm	1.25	1.30	1.35	0.05
Vertikal bo'yicha zichligi	X_2	dona	44	53	62	9
Qalinligi	X_3	mm	1.4	1.6	1.8	0.2

2-jadval


Tajriba rejasi

T/r	Omllar sathlari			$\bar{Y}_{u1}$ (1)	$\bar{Y}_{u2}$ (2)	$\bar{Y}_{u3}$ (3)	Uzilishdagi cho'zilishi $\bar{Y}_{u.orta}$	$S^2\{y_{u1}\}$, dispersiya
U	X_1	X_2	X_3					
1	+	+	-	142	144	145	144	2,889
2	0	+	+	143	145	146	145	2,889
3	-	+	0	139	140	142	140	1,889
4	+	0	0	140	142	140	141	2,222
5	0	0	-	143	144	141	143	1,889
6	-	0	+	139	137	139	138	2,222
7	+	-	+	132	130	132	131	2,222
8	0	-	0	138	137	139	138	1,000
O'rtacha qiymat				133,5	139,9	140,5	140	
								$\sum = 17.222$

Uzilishdagi cho'zilishi bo'yicha olingan regressiya tenglamasi quyidagicha:


$$y_1 = 139.1 + 0.777x_1 + 4.498x_2 - 0.721x_3 + 1.083x_1x_2 - 4.583x_1x_3 - 1.374x_1^2 \quad (6)$$

Uzilishdagi cho'zilish bo'yicha regression tenglamani kiruvchi paramertlarning ta'sirlaridagi izochizqlari orqali tahlili quyida olib borilgan.




14-rasm. Matoni vertikal bo'yicha zichlikni halqa qadamiga bog'liqligi

Halqa qadamining $x_1=0.6-1$ gacha oshishi vertikal bo'yicha zichligining $x_2=0.6-1$ gacha oshishi hisobiga uzilishdagi cho'zilish oshganligini izochiziqlarda ko'rishimiz mumkin (14-rasmga qarang). Bunda qalinligi $x_3=1$ qiymatida erishadi.



15-rasm. Matoning qalinligi halqa qadamiga bog'liqligi

Qalinligining $x_3=0.6-1$ gacha o'zgarishi halqa qadamining $x_1=0.2-1$ gacha oshishi hisobiga uzilishdagi cho'zilish oshganligini izochiziqlarda ko'rishimiz mumkin (15-rasmga qarang). Bunda vertikal bo'yicha zichligining $x_2=1$ qiymatida erishadi.



16-rasm. Matoning qalinligi vertikal bo'yicha zichlikka bog'liqligi

Qalinligining $x_3=(-1)-(-0.2)$ gacha o'zgarishi vertikal bo'yicha zichligining $x_2=0.6-1$ gacha oshishi hisobiga uzilishdagi cho'zilish oshganligini izochiziqlarda ko'rishimiz mumkin(16-rasmga qarang). Bunda halqa qadamining $x_1=0$ qiymatida erishadi.

Dissertatsiyaning **“Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiqoti”** deb nomlangan uchinchi bobida ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini texnologik ko'rsatkichlarini va fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq va tahlil qilish bo'yicha quyidagi natijalar olingan.


Olingan ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini variantlaridagi hajm zichliklari bir-biri bilan solishtirilgan. Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining tarkibidagi paxta iplarini chiziqliy zichliklarini son ko'rsatkichlarini o'zgartirish va ularni joylarini almashtirish

hisobiga trikotajning hajm zichligi 263 mg/sm^3 dan $234,7 \text{ mg/sm}^3$ gacha o'zgarishini ko'rish mumkin.

Olingan namunalarning I-variantini yuza zichligi $M_s=352 \text{ gr/m}^2$ va qalinligi $T=1,40 \text{ mm}$ bo'lgan ikki qatlamli trikotaj to'qimasining I-variantini hajm zichligi $251,4 \text{ mg/sm}^3$ ga teng, hamda $M_s=328,6 \text{ gr/m}^2$ yuza zichlikka va $T=1,40 \text{ mm}$ qalinlikka ega bo'lgan ikki qatlamli trikotaj to'qimasining II-variantini hajm zichligi $234,7 \text{ mg/sm}^3$ ga teng.

Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini texnologik ko'rsatkichlarini hajm va yuza zichliklarini tahlili bo'yicha quyidagi xulosaga kelish mumkin: ya'ni I-variant bilan II-variant va III-variantlarning hajm zichliklarini o'zaro solishtiradigan bo'lsak, ikki qatlamli trikotaj to'qimasining II-varianti $16,7 \text{ mg/sm}^3$ ga, ya'ni $7,25\%$ ga kam va III-varianti 7 mg/sm^3 ga, ya'ni $3,03\%$ ga xomashyo kam sarflanadigan to'qima variantlari sifatida qabul qilish mumkin (17-rasmga qarang).

Ustki trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalaniladigan trikotaj matolarining havo o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, to'qima turi, qalinligi va zichligiga bog'liq bo'lgan holda qo'yida keltirilgan chegaralarda o'zgardi, ya'ni tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki (18-rasmga qarang), olingan ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini 6-ta varianti bo'yicha eng yuqori havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi $191,2 \text{ sm}^3/\text{sm}^2\text{sek}$ ga teng, 100% paxta ipidan to'qilgan mato bo'lsa, eng kam havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi $100,8 \text{ sm}^3/\text{sm}^2\text{sek}$ VI-variantni havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi. I-variant matosining havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi bilan taqqoslanganda, V-variantning havo o'tkazuvchanligi $119,6 \text{ sm}^3/\text{sm}^2\text{sek}$ ga teng bo'lib, I-variantga nisbatan havo o'tkazuvchanligi $37,4\%$ kamligi aniqlandi. VI-variantning havo o'tkazuvchanligi $100,8 \text{ sm}^3/\text{sm}^2\text{sek}$ ga teng bo'lib, I-variantga nisbatan havo o'tkazuvchanligi $47,2\%$ kamligi aniqlandi. Buning sababi, VI-variantning halqa qatorlarini hosil qiluvchi hosilali glad, lastik va arqoq iplarini chiziqiy zichliklari $20 \text{ teks} \times 4$ ga teng bo'lib, qolgan variantlarga nisbatan trikotajni qalinligi yuqori bo'lib $1,80 \text{ mm}$ ga teng.



17-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini hajm zichliklari

